



“BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SHE‘RIY ASARLARNI O‘QITISHDA KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH”

Mahamadjonova Muxlisaxon

Qo‘qon universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Abdupattoyev G‘ulomjon

Qo‘qon universiteti Pedagogika va

psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

muxlisaxon2501@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15761273>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2025

Accepted: 25th June 2025

Published: 27th June 2025

KEYWORDS

she‘riy asarlar, kreativ fikrlash, 4K modeli, ijodiylik, boshlang‘ich sinf darsligi, she‘riy asarlar tahlili, ko‘rgazmali qurollar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga she‘riy asarlarni o‘qitishda kreativ fikrlashga o‘rgatish, she‘riy asarlarni ifodali o‘qiy olish, ularning mazmunini anglay olish, ijodiy fikrlash to‘g‘risida, boshlang‘ich sinflarda she‘riy asarlarning o‘ziga xos xususiyati, uni o‘rganishga tayyorgarlik, she‘riy asar matni tahlili xususida, she‘riy asarlarni o‘rgatish jarayonida kreativ fikrlashga o‘rgatish mazmuri so‘z boradi.

KIRISH

Bugungi kunda ta‘limda kreativ fikrlashni rivojlantirish, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har tomonlama rivojlanishi uchun juda muhimdir. Yosh bolalar uchun she‘riy asarlarni o‘qitish nafaqat tilni o‘zlashtirish, balki ularning tasavvuri, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada she‘riy asarlarni o‘qitish jarayonida kreativ fikrlashni qanday rivojlantirish mumkinligi haqida so‘z boradi.

She‘riy asarlarni o‘qitish ijodiylik hisoblanadi. Albatta, ijodiylik rivojlansa kreativ fikrlash kengayadi. Ijodkor insondan yomonlik chiqmasligi haqida ko‘p eshitganmiz. Bola yoshlikdan she‘rlarga, hikoya va ertaklarga oshno bo‘ladi. Bularga qiziqirish va ularni rivojlantirish zarur. Yoshlikdan kreativ fikrlagan bola ijodkorlik sari o‘tlanadi. Yangi-yangi g‘oyalar o‘ylab topa boshlaydi. O‘quvchilarga she‘riy asarlarni o‘qitishdan oldin ularga o‘zi she‘rning nimaligi, uning qay hollarda tug‘ilishi, uni kimlar yoza olishi, hamda qanday aytilishi haqida ma‘lumot berib o‘tish kerak.

She‘r (arabcha: “shuur” – “sezgi”) – fikrning his-tuyg‘uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she‘riy nutq bilan ifoda etilgan, ma‘lum ichki ohangga ega badiiy asar. “She‘r” atamasi o‘rniga ba‘zan “nazm” so‘zi ham qo‘llanadi. U badiiy adabiyotning qadimiy turi bo‘lib, insoniyat eng birinchi badiiy asarlarni she‘rda yaratgan. Rivoyat qilishlaricha, birinchi she‘rni bevaqt o‘ldirilgan o‘g‘li Hobilning dardida kuygan Odam alayhissalom yaratgan ekan. Shuning uchun ham unda, deyarli hamisha, muallifning oniy kayfiyati, lahzalik porloq kechinmalari ustuvorlik qiladi. She‘rda fikrning kutilmagan va sezimlarga kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan yo‘sinda ifodalanishiga e‘tibor qilinadi. Shu bois ham har bir she‘rdan o‘ta muhim ijtimoiy g‘oya ifodasini kutish maqsadga muvofiq emas. Ularda tuyg‘ular po‘rtanasi qudratli, sezimlar miqyosi keng va ta‘sirchanlik, yuqumlilik darajasi yuqori bo‘lishi muhimdir.

She'arning uzoq yashashini ta'minlaydigan asosiy omillar: tuyg'ular samimiyati va ifoda tabiiyligidir.

O'zbek xalq og'zaki ijodida she'rlar asosan, kuylash uchun yaratilganligi uchun "qo'shiq" deb atalgan. Og'zaki she'r qat'iy shakliy-mundarijaviy qoliplarga tushmaydi va yo'nalishiga ko'ra mavsum, marosim, sevgi qo'shiqlari kabi turlarga ajratiladi. Mumtoz she'rlar qofiyalanish va banddagi misralarning miqdoriga ko'ra maxsus janrlarga bo'lingan. Agar she'r bandi 2 misradan iborat bo'lsa – masnaviy, 3 misradan iborat bo'lsa – musallas, har bir band 4 misradan tashkil topsa – murabba', 5 qatorli bandlardan tashkil etilsa – muxammas, bandlari 6 satrdan tashkil topsa – musaddas, 7 misrali bandlardan iborat bo'lsa – musabba', 8 misrali bandlardan tashkil topsa – musamman, 9 qatorli bandlardan iborati – tasne' (mustasne'), 10 qatorli bandlardan iborat poetik asarlar muashshar (mashru') deyilgan.¹

She'r ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She'riy nutqni ohang jihatidan ma'lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo'laklarning izchil va bir meyorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so'zlar) hisoblanadi. She'rni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, lirik va epik she'rlar o'qitiladi.

She'riy hikoya, she'riy ertaklarda syujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r "biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'ning xususiyati "kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi". Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni o'qish mehnattalab ishdir. Busiz, hatto, adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.²

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga she'riy asarlarni o'qitishda kreativ fikrlashning ham o'rni beqiyos. Bunda o'quvchi ijodiy fikrlashni, o'z fikrini bayon qilishni o'rganadi.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta'lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya'ni bu tamoyilda quruq ma'lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o'qish-yozishni o'rgatish bilan cheklanilmaydi. O'quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo'lgan hayotiy ko'nikmalarni ham o'rganadi. 4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

¹Quronov D., Adabiyotshunoslikka kirish, Andijon, 2002.148-bet

²Xolida G'ulomova, Hilola Bakiyeva. O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH. Maqola. 2020

O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

4K modeli ichidagi kreativ fikrlashda o'quvchilar ijodiy fikrlashadi, innovatsion yechimlarni izlab topadilar, yangicha go'yalar o'ylab topishadi. She'riy asarlarni o'qitishda kreativ fikrlash juda muhim vosita hisoblanadi. Har bir she'rdan ijodiy ilhomlanadilar. She'riy asarlar o'quvchilarning dunyoqarashini, fikrlashini kengaytiradi. Kreativlik so'zi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida she'riy asarlarni o'qitish nafaqat o'quvchilarning she'riy san'atlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularni kreativ fikrlashga, tasavvur qilishga, va o'z fikrlarini ifodalashga o'rgatadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun o'qituvchi tomonidan kreativ usullarni qo'llash, o'quvchilarning individual fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.³

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. She'riy asarlarni o'qish jarayonida ular jonlanadilar, dunyoqarashlari kengayib boradi. Boshlang'ich sinf darsliklarida odob- axloqqa oid, ta'lim tarbiyaga oid she'rlar ko'p o'rinlarda keltirilgan.

She'riy asarlarda insonning ichki kechinmalari, uning ruhiyati aks etadi. Voqea hodisalardan ko'ra inson uni qanday his qilayotgani, uning ichki kechinmalariga qanday ta'sir etayotgani muhimdir. She'riy asarlar insonning hissiyotlariga ta'sir qilmog'i kerak. Vatan haqida bo'ladimi, ona haqida bo'ladimi yohud boshqa narsa haqida bularning barida inson ruhiyati jo'nbo'shga kelishi muhim.

Shu o'rinda ovoz og'zaki she'riyatda faol, jismoniy jihatdan muhim narsa ekanligini aytib o'tish lozim. Shunday ekan, Sheriyatda voiz va tinglovchi, ijrochi va auditoriya kerak, sado esa "shoir ovozi"ning jonlanish tizimi deb yuritiladi.

Haqiqatan ham she'riyat tizimida ovoz birinchi vosita hisoblanadi. Ijrochi o'zining ichki kechinmalarini ovoz orqali amalga oshiradi. Ovoz to'narlari goh qattiq goh ohista amalga oshiriladi. Ijrochining ovozi shirador va yoqimli bo'lsa, tinglovchiga manzur bo'ladi

She'riyat, uni ifodali o'qish ovoz bilan bog'liq san'at bo'lgani uchun ham o'quvchi o'z tajribasidan kelib chiqqan holda, uni o'z his-tuyg'ulariga, intonatsiyaga, ma'nosiga ko'ra o'zgartiradi; ohang va urg'u orqali boshqariladigan she'rlar o'ziga xos tarzda har qanday o'quvchi ham anglab yetmaydigan mohiyatga ega bo'ladi.

Har qanday she'riy asar bo'lsin yoki nasriy asar bo'lsin ohang, urg'u, intonatsiya muhim o'rin tutadi. Masalan g'amgin she'rni ijrochi quvnoq holda aytmaydi yoki quvnoq she'rni g'amgin holda ijro etolmaydi.

Boshlang'ich sinflarda she'riy asarlarni o'qitishda metod va metodologiya ham katta o'rin tutadi. She'riy asarlarni o'qitishda kreativ fikrlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Masalan, she'rlarni sahnalarda ijro etish, musiqaga aylantirib aytish, jo'r bo'lib aytish, savollar tuzish va hokazo. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga turli xil metodlar bilan dars o'tilsa, ularni beixtiyor darsga qiziqishlarini orttiradi. Chunki ular bu paytta ko'proq o'yinqaroq bo'lishadi. Ularni shu tariqa darsga qiziqtiriladi. Quyida turli interaktiv metodlarni she'riy asarlarni o'qish misolida ko'rib chiqamiz.

Avvalo, bolaga she'riy asarlarni o'qitishdan oldin ularning nutqiy savodxonligini oshirish lozim. Chunki o'quvchining nutqida muammo bo'lsa o'z -o'zidan chiroyli she'r mutolaa qila olmaydi. Birinchi o'rinda o'qituvchi darslar jarayonida ularning nutqini rivojlantiruvchi mashqlar bilan shug'ullanishi kerak. O'qituvchi dars jarayonida turli xil aytilishi qiyin bo'lgan so'zlar, turli tez aytishlar, interfaol metodlar orqali o'quvchilar nutqini ravon qilib borishi kerak. Quyida o'quvchilar nutqini hamda ularning she'riy asarlarni o'qishda ajodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi turli ta'limiy metodlarni ko'rib chiqamiz.

3G.Yusufaliyeva, N.Abduraxmonova,A.To'rabekova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o'qituvchining roli. Maqola. 2021

“Orzu” metodi

Bunda o'quvchilar o'z orzularini ketma-ket tarzda aytib o'tishadi. Har bir o'quvchi nutqini ravon hamda ifodali qilib aytishlari kerak bo'ladi. So'ngra, ular mana shu orzularini she'riy tarzda aytishlari lozim. Bu metod juda qiziqarli bo'ladi. Bundan ko'zlangan maqsad bolani erkin fikrlashga, uning orzularini ro'yobga chiqarishga erishiladi.

Bu metod orqali o'quvchilar nutqi ravonlashadi, fikrlashi kengayadi, o'z orzularini she'rga solib aytganda she'riy asarlarni o'qish bo'yicha qobiliyati rivojlanib boradi.

“Aralash so'zlar” metodi

Bu metod o'quvchilar onggini, ularning fikrlash darajasi hamda so'zlarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llay olishi uchun juda samarali vosita hisoblanadi. Bu metod shunday qo'llaniladi, o'qituvchi doskaga so'zlarning o'rnini almashtirib yozadi. So'zning ma'nosi o'zgaradi. O'quvchilar so'zlarni o'z o'rniga qo'yib yozishlari kerak bo'ladi.

Bundan maqsad o'quvchining so'zlarni to'g'ri qo'llay olishini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini o'stirish.

“To'g'ri so'zla” metodi

Bunda doskaga to'rtta so'z yoziladi. Bu so'zlarning uchtasi ma'nodosh bo'lib, qolgan bittasi ularning ma'nosidan yiroq bo'ladi. O'quvchilar so'zlar ichidan ma'nosi yiroq bo'lgan so'zni chiqarib tashlashi kerak bo'ladi. Masalan, *she'r*, *topishmoq*, *maqol*, *kitob* so'zlari ichidan ortiqcha so'zni chiqarib tashlashi kerak. Bu yerda *she'r*, *maqol*, *topishmoq* so'zlari bir adabiy ijod bilan bog'liq kitob so'zi esa ulardan ozgina yiroqroq. Shu tarzda turli so'zlarni qatnashtirib bu metodni qo'llash mumkin.

Bu metod orqali o'quvchilar so'zlarni to'g'ri qo'llay olish va ma'nodosh so'zlarni ajratib olishni o'rganib olishadi.

“Musiqiy ohang” metodi

Bu metodimizda darslikda berilgan she'riy asarlarni musiqaga solib aytiladi. Bu bilan o'quvchi ijodiy zavq oladi, she'rning matnini yodlashi osonroq kechadi hamda darsimizning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi.

Bu metod bevosita musiq fani bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi.

“She'riy tasvir” metodi

Bu metodda o'quvchilar darslikda berilgan she'rlarni yod olishgan holda aytib, doskada turli tasvirlar orqali uni tasvirlab berishlari kerak bo'ladi. Masalan, she'rimiz tabiat haqida bo'lsa, tabiat rasmini, Vatan haqida bo'lsa, Vatan rasmini, maktab haqida bo'lsa maktab va hokazo tasvirlab chizib berishlari kerak. Buni doskada ham daftarda ham bajartirish mumkin. Bundan maqsad, o'quvchi she'rni qiziqib yodlaydi, uning tezligi va ijodiy fikrlashi ortadi hamda tasviriy san'atdagi bilimi rivojlanadi.

Bu metodimiz ham bevosita tasviriy san'at fani bilan aloqador.

“Sahnada she'r” metodi

Bunda o'quvchilar she'rni aytishadi va boshqa o'quvchilar shu she'rning matnidan kelib chiqib sahnada rol orqali ijro qilib berishadi. Albatta, bu metod she'rning matni sahnada ijro qilish mumkin bo'lsa, qo'llaniladi. Bundan maqsad, o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy fikrlashini kengaytirish, she'r o'qish darasini oshirish.

“Davomini top” metodi

Bu metod shunday bajariladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'zi yodlatgan she'rlardan boshini aytadi, ular davom ettirishadi. Yoki buni guruhlariga bo'lingan holda ham bajarsa bo'ladi. Bu bilan o'quvchilar o'sha she'rni yodga olishadi hamda topqirliklari ortadi.

“She'riy tez aytish” yohud “Nafassiz she'r” metodi

Bu metod orqali o'quvchilar tez aytish qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Bunda ular she'rning matnini nafas olmasdan tez hamda ifodali aytishlari kerak. Bu kabi metodlar darsimizni qiziqarli hamda samarali bo'lishini ta'minlaydi.

“Suratda she'r” metodi

Bu metodimizda o'qituvchining ijodiy hamda kreativ qobiliyatlari namoyon bo'ladi. Turli qog'ozlarga turli rasmlarni chiqarib kelishi kerak. Albatta, bu rasmlar sinfda yodlangan she'rlardan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda, asosan, *ona, Vatan, tabiat, maktab, fasllar* haqida yozilgan she'rlar bo'ladi. Ular rasmga qarab gap qaysi she'r haqida ketayotganligini topishlari kerak. Masalan, "tabiat" rasmi bo'lsa, o'quvchilar tabiat she'rini aytishi kerak, rasm "ona" haqida bo'lsa, ona haqidagi she'rni aytishi kerak. Bu metod ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda juda yaxshi samara beradi. Ularning topqirlik qobiliyatini oshiradi.

"Kayfiyat" metodi

Bu metod sinfda o'tilayotgan she'riy asarlarni o'qitishda qo'llaniladi. O'qituvchi she'rning satrlarini turli o'quvchilarga turli kayfiyatda o'qib berishlari uchun bo'lib beradi. Masalan, bir o'quvchi bu she'rni quvnoq tarzda o'qisa, bir o'quvchi hafa tarzsa o'qiydi, yana biri jahldor tarzda o'qisa, yana biri kulgan va kuldirgan holatda o'qiydi. Xullas bu metod bilan ularning kayfiyati ortadi. Darsning qiziqarli o'tishi ta'minlanadi. Kreativ qobiliyati oshadi.

Yuqorida keltirgan metodlarning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini, ularning erkin fikrlash qobiliyatini, ijodkorlik salohiyatini, kreativ qobiliyatining rivojlanishini, she'riy asarlarni to'g'ri va ifodali o'qiy olish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bularning barchasi darslarda ijobiy natija beradi, albatta.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilariga she'riy asarlarni kreativ fikrlashga o'rgatish muhim masala hisoblanadi. Bu bilan bolaning dunyoqarashi kenggayadi, fikrlash qobiliyati ortib boradi. She'r orqali insonning ichki kechinmalari jo'nbo'shga keladi. Hayotning go'zalligini ko'ra boshlaydi. His tuyg'ulari yaxshilana boradi. Boshlang'ich sinflarda she'riy asarlarni o'qitish, nafaqat, bolalarning adabiy didini shakllantiradi, balki ularni mustaqil fikrlash, tasavvur qilish, tahlil qilish va estetik zavq olish kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. She'r o'qish jarayonida o'quvchilarda obrazlar orqali fikrlash, ifoda vositalarini tushunish va ularga nisbatan o'z qarashini bildirish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa o'z navbatida, kreativ fikrlashning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Quronov D., Adabiyotshunoslikka kirish, Andijon, 2002.148-bet
2. Xolida G'ulomova, Hilola Bakiyeva. O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH. Maqola. 2020
3. G.Yusufaliyeva, N.Abduraxmonova, A.To'rabekova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o'qituvchining roli. Maqola. 2021
4. Abdupattayev, G. (2025). NABIJON BOQIYNING "ROHILA" QISSASIDA XARAKTER VA KONFLIKT MASALASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 127-128. <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1140>
5. Xodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). Murod Muhammad Do'st ijodida davr va qahramon muammosi. Amerika ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar jurnali, 3 (12), 77-81.

Internet manbaalari:

1. www.Ziyouz.com
2. www.kh-davron.uz